

MEDITSINAGA OID MATNLARDA TERMINOLOGIK LEKSIKA

ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ЛЕКSIKA В МЕДИЦИНСКИХ ТЕКСТАХ

TERMINOLOGICAL VOCABULARY IN MEDICAL TEXTS

Ismailova S.T.

<https://orcid.org/0000-0001-7492-8643>

Central Asian Medical University

Ismailova S.T. (2025). MEDITSINAGA OID MATNLARDA TERMINOLOGIK LEKSIKA. Actacamu, 9(9), 199–201. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15151566>

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn lingvistikasining asosiy tamoyillari tahlil qilinib, uning strukturaviy va mazmuniy yaxlitlik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Matn har doim ma'lum bir sohaga oid bo'lib, unda umumiy iste'mol leksikasi bilan bir qatorda sohaga xos terminlar va ilmiy atamalar ham ishtirok etishi ta'kidlanadi. Maqolada, shuningdek, termin va atama tushunchalarining o'zaro farqlari ochib berilib, terminlarning ilmiy adabiyotlar tilida shakllanishi va keyinchalik ommaviy nutqqa o'tishi jarayoni yoritiladi. Meditsinaga oid matnlar misolida terminologik leksikaning ahamiyati tahlil qilinib, uning oddiy va ilmiy-ommabop matnlardagi qo'llanilish darajasi solishtiriladi. Tahlillarda terminlarning miqdoriy ko'rsatkichlari keltirilib, ularning matn mazmunini tushunish va axborotni yetkazishdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: leksika, termin, matn, atama, meditsina, ilmiy-ommabop, leksik qatlam

Аннотация. В данной статье анализируются основные принципы лингвистики текста, рассматриваются его структурная и содержательная целостность. Отмечается, что текст всегда относится к определенной сфере и наряду с общеупотребительной лексикой в нем используются термины и научные термины, характерные для данной области. Также в статье раскрываются различия между понятиями «термин» и «атама», рассматривается процесс формирования терминов в языке научной литературы и их последующего перехода в массовую речь. На примере медицинских текстов анализируется значение терминологической лексики, сравнивается степень ее употребления в обычных и научно-популярных текстах. В исследовании приводятся количественные показатели терминов, раскрывается их роль в понимании содержания текста и передаче информации

Ключевые слова: лексика, термин, текст, термин, медицина, научно-популярная литература, лексический слой.

Annotation. This article analyzes the fundamental principles of text linguistics, examining its structural and semantic coherence. It is noted that a text always belongs to a specific field and, along with general vocabulary, includes terms and scientific terminology relevant to that area.

The article also explores the differences between the concepts of "term" and "atama," discussing the process of term formation in scientific literature and its subsequent transition into common usage. Using medical texts as an example, the study analyzes the significance of terminological vocabulary, comparing its usage levels in ordinary and scientific-popular texts. The research presents quantitative indicators of terms and highlights their role in understanding the text's content and conveying information.

Key words: vocabulary, term, text, term, medicine, popular science literature, lexical layer

«Matn lingvistik tadqiqotlarning eng murakkab obyektidir»¹. U sintaktik sathning eng yuqori birligi sifatida struktur jihatdan tugallangan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'ladi. Shuningdek, har

¹ Лосева Л.М. Как строится текст, – М.: Просвещение, 1980, – Б. 4.

qanday matn ma'lum bir sohaga taalluqli bo'ladi. Masalan tilshunoslikka oid matnlarda shu sohaga oid mazmun ifodalansa, adabiyotshunoslikka oid matnlarda adabiyotshunoslikka oid mazmun ifodalanadi. Matn qaysi sohaga taalluqli bo'lsa, unda umumiste'mol leksika bilan birga, o'sha sohaga oid terminlar, atamalar, soha bilan bog'liq umumilmiy leksik qatlamga oid so'zlar ishtirok etadi. Huddi shuningdek, meditsinaga oid matnlar mazmunida shu sohaga oid axborot ifodalanadi va sohaga oid terminologik qatlam ifoda mazmunining markazida bo'ladi.

Lingvistikaga oid lug'atlarda «TERMIN [*lat.terminus* chek, chegara]. 1) fan, texnika yoki san'atda qo'llaniladigan ma'lum bir tushunchani aniq ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. Terminning o'ziga xos xususiyati uning alohida tushunchaga qaratilishi va muayyan terminologik tizimga birlashtirilishidir. Ayrim manbaalarda termin o'rnida atama so'zi qo'llanish holatlari uchraydi. Biroq «...termin so'zini atama so'ziga almashtirishni (termin so'zini iste'moldan chiqarishni) ma'qullab bo'lmaydi. Chunki, birinchidan, atama umuman «narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so'z» degan ma'noga ega»². Ya'ni atama so'zining ma'no qamrovi terminga nisbatan kengroq. Unga maxsus tushuncha anglatmaydigan oddiy nomlar ham kirishi mumkin.

Ayrim manbaalarda termin o'rnida atama so'zi qo'llanish holatlari uchraydi. Biroq «...termin so'zini atama so'ziga almashtirishni (termin so'zini iste'moldan chiqarishni) ma'qullab bo'lmaydi. Chunki, birinchidan, atama umuman «narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so'z» degan ma'noga ega»³. Ya'ni atama so'zining ma'no qamrovi terminga nisbatan kengroq. Unga maxsus tushuncha anglatmaydigan oddiy nomlar ham kirishi mumkin.

«Terminlarning haqiqiy yuzaga kelishi va qo'llanish o'rinlari ilmiy adabiyotlar tilidir. Har qanday yangi hosil qilingan termin birinchi marta ilmiy asar tilida ishlatiladi, ko'pchilikka ma'lum bo'lib, ommalashgandan keyin nutqning boshqa turlariga, jumladan, gazeta, jurnal, radio, televideniye, so'zlashuv nutqlariga o'tishi mumkin»⁴.

Meditsinaga oid matnlarda terminologik leksikaning o'rni umumiste'mol leksika, umumilmiy leksikaga qaraganda salmoqli o'rin egallaydi. Biroq bu meditsinaga oid oddiy matnlarda kuzatilmaydi. Chunki meditsinaga oid oddiy matnlar mazmun va mavzu jihatdan meditsinaga oid bo'lsa ham, u aslida oddiy maslahat, tavsiyadan iborat bo'ladi. Bunday matnlar mutaxassis bo'lmagan o'quvchi uchun mo'ljallangani uchun uning terminologik tarkibi u qadar murakkab bo'lmaydi. Bu matnlarda terminologik leksikaning o'rni miqdor bilan belgilanmaydi, balki axborot uzatish, axborotni tushunish "yukini o'z ustiga olishi" bilan belgilanadi:

Uyqusizlik sog'lom odamlarda qattiq charchash yoki asabiylashish (ruhiy qo'zg'alish) oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Odatda uyqusizlikdan ko'proq aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi odamlar shikoyat qilishadi.

Shunday bo'lsada, uyqusizlik jiddiy kasalliklarda ham kuzatilishi mumkinligini unutmashlik lozim. Bunda shifokorga uchrashib, uyqusizlik sabablari aniqlanib, tegishli davo choralari ko'riladi.

(**"Shifo-info"**, № 20, 18 – Noyabr, 2020)

Berilgan matnda 43 ta so'z qo'llangan bo'lsa, 2 ta terminologik (*Uyqusizlik ruhiy qo'zg'alish*) leksika ishtirok etgan. Takrorlanib qo'llanganlarini ham e'tiborga olsak, 5 ta termin kelgan. Bu umumiy matnning 11,6 % ini tashkil etadi. *Uyqusizlik* terminining o'zi shu qisqa matnda to'rt o'rinda qo'llanadi. Butun matn mazmuni ana shu terminlar orqali oydinlashadi. *Ruhiy qo'zg'alish* terminini esa maxsus izohsiz tushunib bo'lmaydi.

Meditsinaga oid ilmiy-ommabop matnlarda terminologik leksikaning salmog'i ortib borishi bilan birga uning murakkablik darajasi ham kuchayadi. Meditsinaga oid oddiy matnlarda ishlatilgan terminlarni tushunish darajasi oson bo'lsa, meditsinaga oid ilmiy-ommabop matnlarda uni tushunish, anglash darajasi murakkablashadi:

INFARKT (*yurak infarkti*)

² Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: «Фан», 1996, 22 – 23-бетлар.

³ Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: «Фан», 1996, 22 – 23-бетлар.

⁴ Мукаррмов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили, – Тошкент, «Фан», нашриёти, 1984, – Б. 49.

Infarkt – insonlarda to‘satdan ro‘y beradigan og‘ir va asoratli kasallik. Bu kasallik ro‘y berganda yurak muskullarining bir yoki bir qancha muhim qismi nobud bo‘lib, yurak faoliyati izdan chiqadi. Bu kasallik ko‘proq 40-60 yoshli erkaklarda sodir bo‘ladi.

Infarktda aterosklerozdan zararlangan toj arteriyalar (yurakni qon bilan ta‘minlovchi tomirlar) teshigining torayishi, tomirlarning birining tromb bilan berkilib qolishi natijasida shu tomirlardan qon qisman yoki butunlay o‘tmay qoladi. Infarktga qon bosimi, qandli diabet kasalliklari, shuningdek, semizlik, asabiylashish va chekish sabab bo‘lishi mumkin.

(Shukur Ergash “Yuz dardga yuz davo”, 44.)

Yuqorida keltirilgan ilmiy-ommabop matnda jami 76 ta so‘z qo‘llangan bo‘lsa, shundan (*infarkt, asoratli kasallik, yurak muskullari, yurak faoliyati, infarktda, aterosklerozdan, toj arteriyalar, tromb, infarkt, qon bosimi, qandli diabet*) 17 tasi terminologik leksikaga oid so‘zlar hisoblanadi. Ulardan 4 tasi takror kelgan. Matndagi jami so‘zlar miqdorining 22,3% ini tashkil etadi. Matndagi terminlarning 29% ini birikmali terminlar (*yurak muskullari, yurak faoliyati, toj arteriyalar, qon bosimi, qandli diabet*) tashkil etadi. 4 tasini (*infarkt, aterosklerozdan, toj arteriyalar, tromb*) tushunish uchun esa maxsus bilim talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, matn lingvistik tadqiqotlarning eng murakkab obyektlaridan biri bo‘lib, uning tarkibida umumiste‘mol leksikasi bilan birga sohaga oid terminologik qatlam ham muhim o‘rin egallaydi. Har bir matn ma‘lum bir sohaga taalluqli bo‘lib, uning leksik tarkibi shu soha doirasida shakllanadi. Tahlil qilingan matnlarda meditsinaga oid terminlarning qo‘llanish darajasi turlicha ekanligi kuzatildi. Oddiy maslahat xarakteridagi matnlarda terminlar oz miqdorda qo‘llanib, ularning ahamiyati axborotni tushunarli yetkazish bilan belgilanadi. Ilmiy-ommabop matnlarda esa terminologik leksikaning ulushi ortib boradi va ularni tushunish uchun maxsus bilim talab etiladi.

Shunday qilib, meditsinaga oid matnlarda terminologik qatlam axborotni aniq va tushunarli ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Terminlarning qo‘llanishi matnning murakkablik darajasiga bog‘liq bo‘lib, ilmiy-ommabop matnlarda ularning soni ko‘payib, mazmunni chuqurroq tushunishni talab etadi. Bu esa matnni qabul qiluvchi auditoriyaning bilim darajasini ham inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лосева Л.М. Как строится текст, – М.: Просвещение, 1980, – Б. 4.
2. Ҳожиёв А. Термин танлаш меъзонлари. – Тошкент: «Фан», 1996, 22 – 23-бетлар.
3. Мукарромов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили, – Тошкент, «Фан», нашриёти, 1984, – Б. 49.
4. Ismailova S. Structure of Words in Medical texts. – Special Issue – 4 , 2024- B.358